



YASHIL MAKON UMUMMILLIY LOYIHASINING E'OLON QILINISHI VA UNING EKOLOGIK-HUQUQIY AHAMIYATI

Abdumo'minov Muzaffar Jahongir o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: muzaffarabdumominov045@gmail.com

Tel raqam: +998 998430064

Xudoyberdiyeva Zinat Xayrullo qizi

Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: xudayberdiyevazinat@gmail.com

Tel raqam: +998 50-222-02-98

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389391>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-may 2026 yil
Ma'qullandi: 24-may 2026 yil
Nashr qilindi: 26-may 2026 yil

KEY WORDS

yashil makon, ekologik siyosat, atrof-muhit muhofazasi, ekologik barqarorlik, bioxilma-xillik, normativ-huquqiy hujjatlar, ekologik huquq.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Yashil makon umummilliy loyihasining e'lon qilinishi, uning maqsad va vazifalari hamda ekologik-huquqiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil etiladi. Tadqiqotda loyiha doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, bioxilma-xillikni saqlash va yashil hududlarni kengaytirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida mazkur yo'nalishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, ularning amaliy qo'llanilishi va samaradorligi ilmiy-huquqiy jihatdan baholanadi. Maqolada davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda aholi ishtirokining ahamiyati ochib berilib, ekologik siyosatni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Bugungi kunda dunyoda kuzatilayotgan ekologik muammolar tobora dolzarb tus olib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, yer resurslarining degradatsiyasi hamda bioxilma-xillikning kamayib borishi nafaqat tabiatga, balki inson hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari har bir davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ekologik muammolarga e'tibor sezilarli darajada kuchaytirildi. Ayniqsa, yashil hududlarni kengaytirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish borasida qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shular qatorida "Yashil makon" umummilliy loyihasi alohida o'rin tutadi. Mazkur loyiha doirasida mamlakat bo'ylab keng ko'lamli ko'chat ekish ishlari amalga oshirilmoqda, yangi yashil hududlar barpo etilmoqda va mavjud tabiiy resurslarni asrashga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilmoqda.

Shu bilan birga, "Yashil makon" loyihasi faqatgina ekologik tashabbus bo'lib qolmay, balki huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish mavjud normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni, ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirishni hamda fuqarolar va tashkilotlarning bu boradagi mas'uliyatini oshirishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida ekologik huquqning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mazkur maqolada "Yashil makon" umummilliy loyihasining e'lon qilinishi, uning asosiy mazmuni hamda ekologik-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning huquqiy asoslari va ularning ekologik siyosatdagi o'rni yoritib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni "Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish, har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug'orish tizimini yaratish, barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududlarida "yashil bog'lari" ni tashkil etish" belgilab berilgan. Shuningdek, vazifalari "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi 2025 yil 30 yanvardagi Farmonida "Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar berilgan.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash mamlakatimizda ekologik muhitni yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish va aholi salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yashil hududlar shaharning estetik ko'rinishini yaxshilaydi, bu esa turizmni rivojlantirish va aholi uchun qulay sharoit yaratishga yordam beradi. Ko'chat ekish va yashil maydonlarni kengaytirish cho'llanishni oldini olishga va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Daraxtlar havoni tozalaydi, tuproq eroziyasini oldini oladi, issiqlikni kamaytiradi, inson ruhiy va jismoniy salomatligi uchun muhim omillarni keltirib chiqaradi.

Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil davomida respublika miqyosida jami 226,6 million tup ko'chat ekilishi ta'minlandi. Hududiy kesimda ushbu ko'rsatkichlar tahlili quyidagicha taqsimlangan:

- **Farg'ona viloyatida — 18,2 million;**
- **Samarqand viloyatida — 11,6 million;**
- **Toshkent shahrida — 1,1 million tup.**

Shuningdek, sohada ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan "Mening bog'im" loyihasi doirasida aholi tomonidan ilgari surilgan 215 ta eng istiqbolli taklif saralab olindi. Mazkur loyihalar asosida bugungi kunda 142 ta "yashil bog'" hamda 73 ta "yashil jamoat parki"ni tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son Farmoni asosida mamlakatda "Yashil makon" umummilliy loyihasining joriy etilishi ekologik siyosatda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur loyiha, avvalo, respublika hududida yashil hududlar ulushini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda aholi turmush sifati yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim tashabbus sifatida namoyon bo'lmoqda.

Farmonga muvofiq, loyihaning asosiy yo'nalishlari kompleks yondashuv asosida belgilangan bo'lib, bunda daraxt ekish va parvarish qilish tizimini takomillashtirish, hududlarning tuproq-iqlim xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish, ko'chatxonalar sonini ko'paytirish, xorijiy manzarali daraxtlarni mahalliyashtirish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Shu bilan birga, hududlarda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil etish, sug'orish tizimini takomillashtirish hamda har bir daraxt uchun mas'ul shaxslarni belgilash kabi mexanizmlar joriy etilishi ushbu loyihaning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihaning muhim jihatlaridan biri — daraxtlar va butalarni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy choralar kuchaytirilganidir. Xususan, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesishga qo'yilgan moratoriy muddatsiz uzaytirildi. Shu bilan birga, moratoriy talablarini buzgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jarimalar besh baravarga, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari esa ikki baravarga oshirilganligi ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, moratoriy talablarini buzgan qurilish-pudrat tashkilotlariga nisbatan "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali ta'sir choralarning qo'llanilishi ham e'tiborga loyiqdir. Ya'ni, bunday tashkilotlarning reyting bahosi pasaytiriladi yoki ular ma'lum muddatga tizimdan chiqarib tashlanadi. Bu esa ekologik talablarning buzilishiga nisbatan iqtisodiy va tashkiliy ta'sir mexanizmlarining samarali uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar darajasida daraxtlarni kesishga oid noqonuniy ko'rsatmalar berish qat'iyon taqiqlanganligi davlat boshqaruvida ekologik manfaatlar ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu holat ekologik huquqning amalda ustuvorligini mustahkamlashda muhim qadam hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham loyiha doirasidagi muhim yangiliklardan biridir. 2022-yil 1-apreldan boshlab fuqarolar tomonidan yuborilgan fotosurat va videoyozuvlarning huquqbuzarlikni aniqlashda dalil sifatida tan olinishi, shuningdek, bunday xabarlarini yuborgan shaxslarni moddiy rag'batlantirish tizimining joriy etilishi fuqarolik jamiyati institutlarining ekologik nazoratdagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa ekologik huquqni amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokining yangi bosqichini boshlab berdi.

Mazkur Farmon bilan qator davlat dasturlarining tasdiqlanishi ham loyihaning tizimli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Jumladan, 2022–2024-yillarda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni barpo etish dasturlari, 2022–2026-yillarda sug'orish tizimlarini rivojlantirish hamda obodonlashtirish boshqarmalarini texnika bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ekologik infratuzilmani mustahkamlashga xizmat qiladi.

2022-yil 11-oktabrdagi videoselektor yig'ilishida "Yashil makon" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yana bir bor muhokama qilinib, yil yakuniga qadar 75 million, keyingi yil bahorida esa 125 million dona ko'chat ekish vazifasi belgilanganligi ushbu tashabbusning keng ko'lamini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining bu jarayondagi ishtirokini oshirish, daraxt ekishni milliy qadriyat darajasiga ko'tarish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan "Yashil makon" platformasi yo'lga qo'yilgan.

Platformada respublikamizning barcha hududida ekilgan daraxtlarning aynan qaysi hududda joylashgani, ularning soni va hattoki qaysi turga mansubligi haqidagi ochiq ma'lumotlar berilgan. Atrof-muhitga befarq bo'lmagan fuqarolar uchun mazkur platformaga

kiritilgan 200 mln tup daraxtlar ustidan nazorat qila olish imkoniyati yaratilgan. Bu daraxt ekish jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlaydi.

"Yashil makon" platformasidan foydalanish uchun yashilmakon.eco saytiga kirasiz. Keyin esa o'zingizga kerakli bo'limni tanlab, kerakli vazifalarni bajarishingiz yoki onlayn kuzatishingiz, hududlardagi daraxtlar haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Platforma orqali qayerda, qachon va qancha daraxt ekilganini ko'rish mumkin. Qolaversa, unda foto-hisobot shaklida ekilgan daraxtlar aks etgan suratlar joylashtiriladi. Fuqarolar alohida daraxt ekish, aksiyalarda qatnashish, tashabbuskorlarni qo'llab-quvvatlash kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Xalqaro hamkorlik nuqtai nazaridan ham loyiha ijobiy baholanmoqda. Xususan, Shvetsiya tomonidan O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, cho'llanishning oldini olish va tabiiy resurslarni asrash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan "Yashil makon" loyihasi yuqori e'tirof etilgani uning xalqaro ahamiyatini ham namoyon etadi.

Umuman olganda, o'rmonlar va yashil hududlar tabiatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular suv va yer resurslarini saqlash, bioxilma-xillikni asrash, iqlimni tartibga solish hamda inson salomatligini yaxshilashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois "Yashil makon" loyihasi nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va huquqiy jihatdan ham muhim tashabbus sifatida baholanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Yashil makon" umummilliy loyihasi O'zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil hududlar ulushini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim davlat tashabbusi hisoblanadi. Mazkur loyiha doirasida ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning kuchaytirilishi, javobgarlik choralarning qat'iyashtirilishi hamda jamoatchilik nazoratining kengaytirilishi ekologik huquqni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, loyihaning samarali amalga oshirilishi uchun ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, uning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish zarur. Faqatgina kompleks yondashuv orqali "Yashil makon" loyihasi o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 1992.
3. <https://lex.uz/acts/-107115>
4. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni,2018. <https://lex.uz/docs/-3683529>
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi rasmiy sayti
6. <https://gov.uz/oz/eco>
7. Ekologiya huquqi: darslik – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025.198 bet.
8. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2013.
9. <https://lex.uz/ru/docs/-2304953>
10. N.Oblamurodov,M.Xolmurotov. Yashil Unversitet:Uslubiy qo'llanma –"Innovatsiya-ziyo"-2025.-5-bet
11. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2016.